

О‘ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA ERKAK VA AYOL OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI

Artikova Dildora Egamberganovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

dildora.artikova21@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollarda erkak va ayol obrazining ifodalanishi qiyosiy-lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ikki xalq paremiologiyasida erkak va ayol obrazlari orqali ifodalangan gender tasavvurlari hamda milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlashdan iborat. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek va ingliz maqollarida erkak obrazi asosan jasorat, mehnatsevarlik, mas’uliyat va oilaning tayanchi sifatida, ayol obrazi esa mehribonlik, sabr-toqat, sadoqat hamda oilaviy qadriyatlarning saqllovchisi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, har ikki xalq maqollarida gender stereotiplarining o‘xshash jihatlari bilan bir qatorda, ularning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy qarashlari bilan bog‘liq o‘ziga xos farqlar ham kuzatiladi. Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, gender lingvistikasi va paremiologiya yo‘nalishlaridagi ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maqol, erkak obrazi, ayol obrazi, gender, gender stereotipi, paremiologiya.

Kirish. Bugungi kunda gender tilshunosligi zamonaviy tilshunoslikning eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, u til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni gender omili orqali erkak va ayollarning kommunikativ xulq-atvori, nutqiy strategiyalari hamda til birliklaridan foydalanishidagi o‘xshash va farqli jihatlarni o‘rganadi. Zamonaviy tadqiqotlarda gender biologik jinsning oddiy

aksi emas, balki muayyan jamiyatda shakllangan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu sababli erkak va ayol nutqidagi tafovutlar ham faqat biologik omillar bilan emas, balki madaniyat, an'ana, ijtimoiy rol hamda muloqotdagi tajriba bilan uzviy bog'liq holda yuzaga keladi.

Gender xususiyatlarining tilda namoyon bo'lishi faqat og'zaki yoki yozma muloqotda emas, balki xalqning asrlar davomida shakllangan paremiologik fondida ham yaqqol aks etadi. Xususan, maqollar muayyan xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlari, dunyo haqidagi tasavvurlarini mujassamlashtiruvchi barqaror til birliklari sifatida erkak va ayolning jamiyatdagi o'rni, ularga yuklatilgan ijtimoiy vazifalar hamda gender stereotiplarini saqlab kelmoqda. Shu jihatdan maqollar nafaqat folklor namunasi, balki gender konseptlarini tadqiq etish imkonini beruvchi muhim lingvomadaniy manba ham hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Gender lingvistikasining shakllanishida R.Lakofning xizmatlari alohida e'tirof etiladi. Olimaning *Language and Woman's Place* asarida ayollar nutqi ilk bor mustaqil lingvistik hodisa sifatida tavsiflanib, unda muloyimlik, hissiylik, baholovchi sifatarning ko'pligi, undov birliklar va yumshatuvchi konstruktsiyalarning faol qo'llanilishi qayd etilgan. Lakofning fikricha, ayollar ko'proq ekspressiv leksikadan foydalanadilar, erkaklar esa muloqotda qat'iylik, aniqlik hamda hukmronlikni ifodalovchi til vositalariga murojaat qiladilar. Mazkur yondashuv keyingi gender tadqiqotlari uchun nazariy asos vazifasini o'tadi.

Lakofning qarashlari keyinchalik D.Tannen tomonidan kommunikativ strategiyalar nuqtai nazaridan rivojlantirildi. Unga ko'ra, erkaklar muloqotni, avvalo, axborot almashish, mavqe namoyish etish va muammoni hal qilish vositasi sifatida qabul qiladilar. Ayollar esa muloqot orqali hissiy yaqinlikni mustahkamlash, o'zaro tushunishni kuchaytirish va ijtimoiy munosabatlarni saqlashga intiladilar. Keyingi tadqiqotlarda erkak va ayollar nutqining lingvistik xususiyatlari yanada chuqurroq o'rganildi. T.I.Shevchenko ayollar nutqida intonatsiya, hissiylik va ijtimoiy maqomning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. V.P.Belyanin esa erkaklar nutqida terminologiyaning faol qo'llanilishi, gaplarning nisbatan qisqaligi va mavzuni

boshqarishga intilish kuzatilishini qayd etadi. Shuningdek, u erkaklar mavhum tushunchalarga murojaat qilishga moyil bo'lsalar, ayollar konkret predmet va hodisalarni ifodalovchi birliklardan ko'proq foydalanishini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida ham gender masalalari bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. S.Mo'minov o'zbek erkak va ayollar nutqining verbal va noverbal xususiyatlarini tahlil qilib, erkaklar nutqida bevositalik va rasmiylik, ayollar nutqida esa muloyimlik, hissiylik va odob me'yorlariga rioya qilish ustunligini ko'rsatadi. G.Ergasheva ayollar nutqining hududiy xususiyatlarini tadqiq etib, qishloq va shahar ayollari talaffuzi hamda nutqiy odatlarida sezilarli farqlar mavjudligini qayd etadi. Sh.Iskandarova esa o'zbek ayollari nutqida **aylanay, o'rgilay, girgitton, qoqindi** q kabi ijobiy emotsional ma'noni ifodalovchi birliklarning faol qo'llanilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, M.Ch.Chutpulatov erkaklar va ayollar ishtirokidagi muloqotlarda ayollar nutqining sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatib, gender xususiyatlarining kommunikativ vaziyatga ham bog'liqligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning obyektni o'zbek va ingliz tillaridagi erkak hamda ayol obrazlarini ifodalovchi maqollar tashkil etdi. Maqollar har ikki tildagi paremiologik lug'at to'plamlaridan saralab olindi. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularda erkak va ayol obrazlarining ifodalanish usullari, kommunikativ xususiyatlari hamda milliy-madaniy mazmuni tahlil qilindi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, semantik tahlil hamda lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbek va ingliz maqollarida erkak hamda ayolning jamiyatdagi o'rni ko'pincha ularning an'anaviy gender rollari orqali ifodalanadi. Paremiyalar shuni ko'rsatadiki, har ikki xalq tafakkurida erkak va ayol bir-birini to'ldiruvchi, biroq vazifalari jihatidan farqlanuvchi ijtimoiy subyektlar sifatida talqin qilinadi.

Ingliz tilidagi ***Men are born to succeed, women are born to marry*** maqoli erkakning hayotdagi asosiy vazifasi muvaffaqiyatga erishish, ayolning esa turmush qurish va oilaviy hayot bilan bog'lanishi haqidagi an'anaviy gender stereotipini

ifodalaydi. Mazkur paremiyada erkakning faol ijtimoiy mavqei va ayolning oilaga yo'naltirilgan roli qarama-qarshi qo'yilgan. Bunda erkak tashqi ijtimoiy makon bilan, ayol esa ichki oilaviy makon bilan bog'lanadi. Shunga yaqin mazmun o'zbek maqollarida ham kuzatiladi, jumladan, **Ro'zg'or ziynati – o'tin, uy ziynati – xotin** maqolida ayol oilaning ma'naviy-maishiy tayanchi sifatida tasvirlanadi. Bu yerda **ziynat** leksemasi ayolning nafaqat uy ishlarini bajaruvchi, balki oilaga fayz va baraka olib kiruvchi shaxs ekanligini anglatadi. Demak, o'zbek lingvomadaniyatida ayolning qadri, avvalo, uning oiladagi o'rni orqali baholanadi. Shuningdek, ingliz tilidagi **Men build houses, women make homes** maqoli ham ayni konseptni ifodalaydi. Unda **house** va **home** birliklarining semantik qarama-qarshiligi alohida e'tiborga loyiq. **House** moddiy inshootni anglatga, **home** mehr, osoyishtalik, oilaviy muhitni ifodalaydi. Demak, erkak uyni quruvchi bo'lsa, ayol uni haqiqiy oilaga aylantiruvchi shaxs sifatida talqin qilinadi.

Ingliz paremiologiyasidagi **Behind every great man, there is a great woman** maqoli esa erkak va ayolning o'zaro hamkorligini aks ettiradi. Ushbu maqolda erkakning muvaffaqiyati ayolning ma'naviy ko'magi bilan bog'lanadi. O'zbek maqollarida bu mazmun bevosita shu shaklda ifodalanmasa-da, ayolning oiladagi barqarorlik va farovonlikni ta'minlovchi shaxs sifatida tasvirlanishi mazkur g'oyaga yaqin turadi. Mehnat taqsimotini aks ettiruvchi **Ayolga – igna, erkakka – ketmon** maqoli gender rollarining an'anaviy taqsimlanishini ifodalaydi. **Igna** ayolning uy-ro'zg'or ishlari, tikuvchilik bilan bog'liqligini anglatga, **ketmon** erkakning jismoniy mehnat, dehqonchilik faoliyatdagi o'rnini ramziy ifodalaydi. Bu paremiyada ikki jinsning vazifalari qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi mehnat taqsimoti sifatida talqin etilgan.

Erkak nutqiga xos kommunikativ xususiyatlar ham maqollarda o'z aksini topadi. Masalan, **Yigitga yig'i yarashmas** maqolida erkakdan hissiyotlarini ochiq namoyon qilmaslik, vazminlik va matonat talab qilinadi. Mazkur maqol erkak obrazini hissiy jihatdan bardoshli, qat'iyatli sifatida shakllantiradi. Shu orqali jamiyatda erkaklarga nisbatan qo'yilgan kommunikativ va axloqiy talablar ifodalanadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan maqollar o'zbek va ingliz paremiologiyasida erkak hamda ayolning gender rollari ko'p jihatdan o'xshash konseptlarga asoslanishini ko'rsatadi. Har ikkala tilda erkak ko'proq tashqi ijtimoiy faoliyat, mehnat va mas'uliyat bilan bog'lansa, ayol oilaning ma'naviy tayanchi, tarbiyachi va uy muhitini yaratuvchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Biroq ingliz maqollarida shaxsiy muvaffaqiyat va individual yutuqlarga ko'proq urg'u berilgan bo'lsa, o'zbek maqollarida oilaviy qadriyatlar va jamoaviy mas'uliyat yetakchi o'rin egallaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur tadqiqot o'zbek va ingliz maqollarida erkak va ayol obrazining ifodalanishini qiyosiy tahlil qilish orqali har ikki xalqning gender tasavvurlari va lingvomadaniy qarashlarini aniqlash imkonini berdi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, maqollar erkak va ayolning jamiyatdagi o'rni, vazifalari hamda ularga xos deb qaraladigan fazilatlarni aks ettiruvchi muhim paremiologik birliklar hisoblanadi. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz maqollarida erkak obrazi asosan jasorat, mehnatsevarlik, qat'iyat, mas'uliyat va oilaning tayanchi sifatida talqin qilinishi aniqlandi. Ayol obrazi esa ko'proq mehribonlik, sabr-toqat, sadoqat, oilaparvarlik kabi fazilatlar bilan bog'liq holda ifodalanadi. Shu bilan birga, ingliz maqollarida individual muvaffaqiyat va shaxsiy tashabbusga ko'proq urg'u berilgan bo'lsa, o'zbek maqollarida oilaviy qadriyatlar, jamoaviy mas'uliyat, o'zaro hamjihatlik ustuvor ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Kelgusida o'zbek va ingliz paremiologiyasida gender stereotiplarining pragmatik, kognitiv va diskursiv xususiyatlarini kengroq korpus materiallari asosida tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Lakoff R. Language and women's Place / R. Lakoff // Language in Society, 1973.- N 2.- P. 45-79.
2. Tannen D. You just don't understand Women and Men in Conversation. Ballantine Books New York, 1990. – P 150.

3. Шевченко Т.И. Социологическая дифференциация английского произношения – М.: Высш.шк., 1990. – С 134.
4. Белянин В.П. Психоллингвистика. – М.: Флинта, 2004. – С. 98
5. Mo‘minov S. O‘zbek muloqotining jins xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1999. 5-son. – B. 64-66
6. Ergasheva G.I. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol.fan.nomz.diss.–Toshkent, 2011. – B. 46
7. M.Ch.Chutpulatov. Ingliz, rus va o‘zbek tillari gender leksikasining semantik va lingvostatistik xususiyatlarining qiyosiy tahlili: Filol.fan.b. fals.dok.avtoref.-T,2021. – B. 20
8. Abidova, R. (2023). The Problem of Gratitude Speech Act in Communication. *Academic research in educational sciences*, 4(4), 248-251.
9. Egamberganovna, R. I. (2025). TARJIMADA BADIY TASVIR VOSITALARINI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 736-738.